
Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanida terminlarning qayta ifodalanishi

Tursunov Elmurod Umrzoqovich

tursunovelmurod03@gmail.com

Katta o’qituvchi,

O’zbekiston davlat jahon tillari Universiteti

Annotatsiya Zamonaviy o’zbek adabiy tili taraqqiyotida terminologiyaning tekshirish obyekti hisoblangan terminlarning o’rni qay darajada ahamiyat kasb etsa, XX-asr o’zbek adabiyotshunosligida ham til sofligini saqlash, ijtimoiy-siyosiy o’zgarishlar natijasida yuzaga kelgan yangi kashfiyot, tushuncha va yo’nalishlarni voqelantirish va til lug’at tarkibini boyitishda terminlar yetakchi vazifalarni bajarib kelgan. Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanida ham, asosan, diniy, arxitektura va qurilishga doir va boshqa fan sohalariga ta’luqli termin va atamalarni ko’plab uchratish mumkin. Terminologiyaga doir maxsus adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, termin istilohini yoritishga oid soha mutaxassislari tomonidan talaygina fikr-mulohazalar bildirilgan. Mazkur maqolada o’zbek jadidchilik harakati namoyondalaridan biri Abdulla Qodiriy tomonidan yaratilgan, o’zbek milliy romannasligi gultojisi hisoblangan “O’tkan kunlar” romanida terminlarni inglizchaga o’girishda yuzaga keladigan murakkabliklar va ularni bartaraf etish usullari, romanning inglizcha tarjimalarida terminlar qay darajada o’z muqobillarini topgani hamda terminlarni tasniflash muammolari aks ettirilgan. Maqolada terminlarni ingliz tiliga o’girishda yuzaga keladigan murakkabliklarni hal etishda qo’llaniladigan tarjima usullari qiyosiy-tahliliy metod yordamida asarning har uchala tarjima variantlaridan keltirilgan misollar yordamida asoslangan.

Kalit so’zlar Termin, transliteratsiya, inglizcha, istorizm, tarixiy so’zlar, tarjima usullari, istiloh

Перефразирование терминов в романе «Минувшие дни» Абдуллы Кадыри

Турсунов Элмурод Умрзокович

tursunovelmurod03@gmail.com

Старший преподаватель,

Узбекский государственный университет

мировых языков

Аннотация Как бы ни была важна роль терминов, считающихся объектом терминологического исследования, в развитии современного узбекского литературного языка, в узбекском литературоведении XX века термины играли ведущую роль в сохранении чистоты языка, осознании новых открытий, концепций и тенденций, возникших в результате общественно-политических изменений, обогащении словарного состава языка. В романе «Минувшие дни» Абдуллы Кадыри также можно встретить множество терминов и выражений, связанных в основном с религией, архитектурой и строительством, а также другими областями науки. Анализ специальной терминологической литературы показывает, что отраслевыми экспертами высказано множество мнений относительно уточнения терминологии. В статье рассматриваются трудности и методы их преодоления при переводе терминов на английский

язык в романе «Минувшие дни» Абдуллы Кадири, одним из представителей узбекского джадидского движения, и считающимся жемчужиной узбекского национального романизма, в какой степени термины нашли свои эквиваленты в английских переводах романа, а также проблемы классификации терминов. В статье представлены методы перевода, используемые для решения сложностей перевода терминов на английский язык с использованием сравнительно-аналитического метода, на основе примеров из всех трех вариантов перевода произведения.

Ключевые слова

Термин, транслитерация, английский язык, историзм, исторические слова, методы перевода, терминология

**Reexpressing terms in the novel
“Bygone days” by Abdulla Qodiri**

Tursunov Elmurod Umrzoqovich

tursunovelmurod03@gmail.com

Senior Lecturer,

Uzbekistan state world languages university

Annotation

No matter how important the role of terms, which are considered the object of terminology examination, is in the development of the modern Uzbek literary language, in the 20th century Uzbek literary studies, terms have played a leading role in preserving the purity of the language, realizing new discoveries, concepts and trends that emerged as a result of socio-political changes, and enriching the vocabulary of the language. In the novel “Bygone Days” by Abdullah Kadiri, one can also find many terms and terms related mainly to religion, architecture and construction, and other fields of science. An analysis of specialized literature on terminology shows that many opinions have been expressed by industry experts regarding the clarification of the terminology. This article reflects the difficulties and methods of overcoming them in translating terms into English in the novel “Bygone Days” by Abdulla Qodiri, one of the representatives of the Uzbek Jadid movement, which is considered the crown jewel of Uzbek national novelism, to what extent the terms have found their equivalents in the English translations of the novel, and the problems of classifying terms. The article presents the translation methods used to solve the difficulties in translating terms into English using examples from all three translation options of the work using a comparative-analytical method.

Key words

Term, transliteration, English, historicism, historical words, translation methods, terminology

Zamonaviy o'zbek adabiy tili taraqqiyotida terminologiyaning tekshirish obyekti hisoblangan terminlarning o'rne qay darajada ahamiyat kasb etsa, XX-asr o'zbek

adabiyotshunosligida ham til sofligini saqlash, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan yangi kashfiyot, tushuncha va yo'nalishlarni voqelantirish va til lug'at tarkibini

boyitishda terminlar yetakchi vazifalarni bajarib kelgan. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida ham, asosan, diniy, arxitektura va qurilishga doir va boshqa fan sohalariga ta'luqli termin va atamalarni ko'plab uchratish mumkin.

Termin so'zi lotincha **terminus** – "*chegara, chet, had*" ma'nolarini anglatib, muayyan faoliyat turi yoki maxsus sohaga oid tushunchani anglatuvchi so'z yoki so'z birikmasiga nisbatan qo'llanadi. Terminologiyaga doir maxsus adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, termin istilohini yoritishga oid soha mutaxassislar tomonidan talaygina fikr-mulohazalar bildirilgan. Quyida termin ta'rifini xususida ayrim olim va mutaxassislar tomonidan ilgari surilgan qarashlarni bayon etamiz.

V. P. Danilenkoning fikricha, "terminologiya umumadabiy tilning mustaqil funksional qatlami hisoblanib, ilm-fan va texnika tili sifatida izohlanadi" (Danilenko, 1977). Termin tilga ma'lum terminologik tizim orqali o'zlashib, tildagi leksik qatlamni to'ldiradi hamda boshqa funksional leksemalardan o'z terminologik maydonida bir ma'nolilikka moyilligi, o'zida expressivlik xususiyati yuklanmaganligi va uslubiy jihatdan betarafligi bilan ajraladi. U. Yuelning ta'kidlashicha, "termin ilm-fan va texnika sohasiga doir tushunchalarni ifodalaydigan so'zlar yig'indisi sanaladi" (Whewell, 1967). Bundan tashqari, terminlar inson faoliyati doirasining maxsus maydonidagina voqelanadi. H. Dadaboyevning qayd etishicha, "Terminologik leksika o'z tarkibiga tor mutaxassislik doirasidan ommaviy muloqot doirasiga ko'chgan noprofessional nutqiy kontekstda keng qo'llanadigan so'z va so'z birikmalarini qamrab oladi. Umumadabiy til doirasiga o'tgan termin o'z terminologiyasi, terminologik maydoni va sistemasidan yiroqlashadi, terminlik xarakteristikasidan ajralib qoladi" (Dadaboyev, 2020). Demak, muayyan terminologik sistemadan muhtakam o'rin egallagan ayrim so'z yoki so'z birikmalari ma'lum vaqtdan so'ng umumiste'mol doirasi ko'chgach,

terminologik xususiyatini yo'qotadi. Shuningdek, kundalik iste'moldagi ayrim so'zlar ayni paytda boshqa sohalariga oid termin sanalishi ham mumkin. H. Dadaboyevning e'tirof etishicha, termin so'zini ta'riflashda **substansional**, **funksional** hamda **derivatsion** tamoyillar hukm suradi (Dadaboyev, 2020).

Substansional tamoyil tarafdorlari fikricha, terminlarda tildagi boshqa leksik birliklarga qaraganda bir ma'nolilik (monosemantikliligi), sistemlilik, aniqlik, kontekstga bog'liq bo'lmaslik va emotsional-expressiv bo'yoqqa (konnotatsiyaga) ega emasligi ustunlik qiladi.

Funksional qarashga ko'ra, termin muayyan til leksikasi doirasidagi barcha so'zlar kabi teng huquqli birlik sanaladi, ya'ni istalgan so'z termin bo'lishi mumkin.

Derivatsion g'oya tarafdorlarining ta'kidlashicha, termin ma'lum spetsifik belgi-xususiyatga xos, maxsus yaratilgan so'z bo'lib, u tilda yangi realiyani ifodalash ehtiyoji natijasida hosil bo'ladi. Shuningdek, tilda **termin**, **so'z**, **atama** va **istiloh** tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lib, ularni bir-biridan ajratuvchi xususiyatlar mavjud.

Termin – xususiy va tor, ilmiylik semasiga ega, tilda faol va harakatchan, expressivlik va emotsional bo'yoqdorlikka ega emas, ilm-fan va tor mutaxassislikka oid, konkret va aniq, kelib chiqishiga binoan ikkilamchi, jamiyat taraqqiyotining ma'lum davrida ma'lum fan taraqqiyoti tufayli yuzaga keladi;

So'z – ilmiylik tushunchasiga ega emas, qo'llanish troyektoriyasiga nisbatan mavhum va noaniq, emotsional-expressiv yuklamaga ega, sohaviy qo'llanish qobiliyatiga ko'ra universal, kelib chiqishiga binoan birlamchi,

Atama – umumiy va keng, nisbatan abstrakt, ilmiylik semasiga ega emas, faol va harakatchan emas, ko'chma ma'noda qo'llanmaydi;

Termin so'zdan shunisi bilan farqlanadiki, terminning qo'llanish doirasi cheklangan bo'lib,

uning ma'nosi kontekstga bog'liq bo'lmaydi. Termin tilda zarurat tufayli yaratiladi.

Istiloh – aranchadan o'zlashgan mazkur leksema esa "tarixiy terminologiya aspektidagi izlanishlar, tarixiy manbalar matnidagi tushunchalarga nisbatan" (Madvaliyev, 2017) qo'llanadi. Misol uchun, "**atama** – **termin** – **istiloh** so'zlaridan birgina **atama** so'zi atamadir. Shuningdek, **talaba** – **student** – **tolib** so'zlari ichida faqatgina **talaba** so'zi atama sanaladi. Xuddi shunday, *shakldosh so'zlar* ↔ *omonimlar*, *ma'nodosh so'zlar* ↔ *sinonimlar*, *zid ma'noli so'zlar* ↔ *antonimlar* juftligining birinchilari atamalar ikkinchilari esa terminlardir" (Suyunov, 2024).

E. Ochilovning ta'kidlashicha, terminlarni tarjima qilishda uch tamoyil hukm suradi (Ochilov, 2012):

1. Muayyan termin tarjima matnida shaklan o'zgarishsiz qo'llaniladi. Masalan, *matematika*, *astronomiya*, *biologiya*, *printer*, *mashina* va boshqalar. Mazkur usulning afzalligi terminning bir ma'noliligi va dunyoning deyarli barcha mamlakatlari tillarida bir xilda ifoda planiga egaligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, istifoda qilinayotgan termin orqali ifodalangan tushunchani yetkazib berishda murakkablik kuzatilmaydi.
2. Asliytdagi termini tarjima tilidagi muqobili bilan almashtirish usuli. Misol uchun, *original* – *asl*, *haqiqiy*, *psixolog* – *ruhshunos*, *tekst* – *matn*, *semantik* – *ma'noviy*, *lingvistik* – *lisoniy* va shu kabilar. Ammo, bu har qanday termini tarjima tilidagi muqobili bilan almashtirish mumkin ekanini anglatmaydi. Masalan, **ruchka** so'zini olaylik. O'zbek tiliga rus tilidan o'zlashgan ushbu leksema **qo'lcha**, **dastak**, **tirgak**, **dasta** kabi ma'nolarni beradi. Rus tilidagi *pyka* (r. qo'l) so'zini kichraytirilgan shakli hisoblangan mazkur yozuv qurolini o'zbek tilidagi **qo'lcha** muqobili bilan almashtirib bo'lmaydi. Qo'llangan taqdirda

ham o'zbekzabon so'zlashuvchilari tomonidan tushunilmaydi. Shu sababli, mazkur leksema rus tilidagi **ruchka** shaklida istifoda qilinadi.

3. So'zma-so'z tarjima qilish, kalkalash usuli. Misol uchun, *metodist* – *uslubchi*, *differensial* – *farqlovchi*, *ekivalent* – *muvofiq keluvchi*, *teng qiymatli*, *abzats* – *hatboshi* va h.k.

Tahlilimizni adibning "O'tkan kunlar" romanida qo'llanilgan terminlar asarning inglizcha tarjimalarida qay darajada o'z muqobillarini topgani, terminlarning inglizcha o'girmalarida qanday tarjima usullaridan foydalanilgani hamda ekvivalentlik darajasi qay yo'sinda qaror topgani xususida davom ettiramiz. Romanning II-qismi, "Navo kuyi" nomli faslida muallif o'sha davrning ijtimoiy-maishiy vaziyatini qalamga olib, aksariyat qismi musulmonlardan iborat bo'lgan o'lkada yashovchi aholining haqqoniy turmush tarzi, fe'l-atvorini xolis chizgilar yordamida yoritishga harakat qiladi. Mazkur faslida shunday jumlaning uchratish mumkin:

"Zoni bilan zoniylar ham peshtoqdan tashlanadirlar, ichkulik ichkan uchun qirq darra uriladir. Rais afandi mulozimlariga darra ko'tartirib, namozsizlarni tekshiradir, farzi ayn bilmaganlami urdiradir edi"(Qodiriy, 2004).

Mazkur jumlada arxitekturaga oid **peshtoq** va **rais**, **farzi ayn**, **zoni**, **zoniya** singari diniy terminlar ko'zga tashlanadi. Ushbu arxitekturaga doir va diniy terminlar inglizcha tarjimalarda quyidagicha ifoda etilgan.

I. Tuxtasinov, O. Mo'minov, A. Hamidovlar talqinida:

"Adulterers were thrown from the top of the tower and those who drunk alcohol were pummeled with special sticks forty times. Keepers of morals together with their servants got the people pummeled who did not pray and observe the rules of Islam" (Tuxtasinov, 2017).

Tarjimaning mazmuni: Zinokorlar minora tepasidan uloqtirilar va spirtli ichimlik ichganlar

esa qirq marta maxsus tayoqlar bilan urilardi. Ma'naviyat himoyachilari o'z xizmatkorlari bilan birga namoz o'qimagan va islom ahkomlariga rioya qilmaganlarni urardilar (*Tarjima muallifdan*).

M. Riz tarjimasi:

"Zoni and zoniya, prostitutes and adulteresses alike, were thrown to their deaths from high arches. Drunkards were given forty lashes. The rais afandi, who enforced morality, and their minions conducts searches and interrogated suspects, whip in hand" (Riz, 2019). **Tarjimaning mazmuni:** Fohishalar va zinokorlar baland arklardan uloqtiriladilar. Ichkilik ichganlarga qirq darra uriladilar. Axloq posbonlari bo'lgan rais

afandi va ularning xizmatkorlari tintuv o'tkazib, gumondorlarni so'roq qilishadi va qo'llariga urishadi (*Muallif tarjimasi*).

Kerol Ermakova o'girmasi:

"Fornicators and whores were hurled from towers; those who drank were sentenced to forty lashes. Aided by mulazims, the moral guardians carried out their investigations and interrogations bearing barbed whips" (Ermakova, 2019).

Tarjimaning umumiy mazmuni: Zinokorlar va fohishalar minoralardan uloqtiriladilar; ichkilik ichganlar qirq darraga hukm qilinadilar. Mulazimlar ko'magida axloq posbonlari tikanli qamchi ko'tarib tergov va so'roqqa tutardilar (*Tarjima muallifdan*).

Asliyat matnidagi realiyalar	I. Tuxtasinov, O. Mo'minov, A. Hamidov tarjimasi	Mark Riz tarjimasi	Kerol Ermakova tarjimasi
Zoni bilan zoniylar ham peshtoqdan tashlanadilar, ichkilik ichkan uchun qirq darra uriladi. Rais afandi mulozimlariga darra ko'tartirib, namozsizlarni tekshiradi, farzi ayn bilmaganlarni urdiradi (Qodiriy, 2004).	Adulterers were thrown from the top of the tower and those who drunk alcohol were pummeled with special sticks forty times. Keepers of morals together with their servants got the people pummeled who did not pray and observe the rules of Islam (Tuxtasinov, 2017).	Zoni and zoniya, prostitutes and adulteresses alike, were thrown to their deaths from high arches . Drunkards were given forty lashes. The rais afandi, who enforced morality, and their minions conducts searches and interrogated suspects, whip in hand (Riz, 2019).	Fornicators and whores were hurled from towers ; those who drank were sentenced to forty lashes. Aided by mulazims, the moral guardians carried out their investigations and interrogations bearing barbed whips (Ermakova, 2019).

Jadval 1. Tadqiq etilayotgan parcha tarkibidagi terminlarning inglizcha tarjimalari chog'ishtirma tahlili

Jadvaldan ko'rinadiki, har uchala tarjima variantlarida ham tarjimonlar parchada tahlilga tortilayotgan terminlarni tarjima matnida imkon qadar to'liq qayta tiklashga uringanliklariga guvoh bo'lamiz, ammo tarjimada xomtamalik, noaniqlik va mavhumlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Jumla tarkibidagi **zoni** leksemasi arab tilidagi **zoniyy** (O'TIL, 2005) [*arab. – zino qiluvchi*]

leksemasining xalq so'zlashuv tilidagi morfologik o'zgargan shakli hisoblanib, zino qiluvchi erkakka nisbatan qo'llaniladi. Arab tilida jins kategoriyasi ikki toifaga ajratiladi: muannas (ayol, jenskiy) va muzakkar (erkak, mujskoy) jins (Amonov, 2023). Muannas jinsga oid so'zlar morfologik xususiyatiga ko'ra muzakkar jinsidagi leksemalardan so'z oxiridagi – **a** suffiksi bilan

farqlanadi. Demak, **zoni(y)** zinokor erkak, **zoniya** esa zinokor, buzuqi ayolni anglatuvchi diniy terminlardir. I. Tuxtasinov, O. Mo'minov, A. Hamidovlar tomonida amalga oshirilgan tarjimada ushbu terminlar **adulterers** (*zinokor erkaklar*) shaklida, M. Riz talqinida esa **zoni** and **zoniya**, **prostitutes** and **adulteresses** (*zoni va zoniyalar, fohishalar va fohisha ayollar*) shaklida, K. Ermakova tarjimasida esa **fornicators and whores** (*zinokor erkaklar va fohishalar*) ko'rinishida qayta tiklangan. Masalaning qiziq jihati shundaki, ingliz tilida bu terminlarga to'liq muvofiq keladigan **adulterer** (*zinokor erkak*) va **adulteress** (*zino qiluvchi, fohish, buzuqi ayol*) leksemalari mavjud bo'lsa-da, negadir romanning har uchala inglizcha tarjimalarida mazkur leksik birliklar turlicha (ayrim hollarda noaniq) o'g'irilgan. Masalan, M. Riz ushbu terminlarni transliteratsiya qilib, inglizcha muqobillarini berishga urinadi, ammo **zoni(y)** so'zini *prostitute* shaklida, **zoniya** leksemasini esa *adulteress* deb ifodalaydi. Muammo shundaki, ingliz tilining izohli lug'atlaridan biri Oksford lug'atida **prostitute** leksemasiga "*a person, typically a woman, who engages in sexual activity for payment* (ODE, 2010)" (biror to'lov uchun jinsiy aloqa (buzuqilik) bilan shug'ullanadigan inson, odatda ayol kishi) deb ta'rif beriladi. Demak, **prostitute** leksemasi **zoni(y)** so'ziga ekvivalent bo'la olmaydi. Umuman olganda, har uchala tarjimalarda mazkur ikki termin yoki jinsiy neytral so'zlar yordamida yoki noto'g'ri jinsga oid so'z o'rqali o'girib ketilaverilgan. Keyingi **peshtoq** leksemasi [*forscha* "pesh" – old, *arabcha* "toq" – qubba, arka, gumbaz] *madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy kabi binolarning old tomondagi serhasham yuqori qismi, mehrob shaklli baland darvoza, arkka* (O'TIL, 2005) nisbatan qo'llaniladigan arxitekturaga oid termindir. Q. Rajabov va S. Inoyatovlarning ma'lumot berishlaricha (Rajabov, 2016), yaqin o'tmishda baland minora va peshtoqlar musulmonlarni azonga chaqirish, kuzatuv punkti, o'lchov vazifasini hamda, ayrim hollarda, aholi

ichida buzuqilik yoki xoinlik qilgan insonlar tomoshaviy qatl qilinadigan joy bo'lib, ularni minora peshtoqidan tashlab yuborish orqali jazolash usuli qo'llanilgan. Mazkur leksema inglizchaga **portal** shaklida o'g'iriladi. I. Tuxtasinov, O. Mo'minov, A. Hamidovlar talqinida ushbu termin inglizchaga **tower** (minora) shaklida, M. Riz tomonidan **high arches** (baland ravoqlar) va K. Ermakova tarjimasida esa **towers** (minoralar) tarzida ag'darilgan. E'tiborlisi shundaki, **minora** va **ravoq** arxitekturaviy o'zlarining yechimi va qurilish jihatidan peshtoqdan tubdan farqlanadi. To'g'ri, jazolanuvchini minoraning ustki qismidan tashlab yuborish mumkin, ammo ravoqdan emas, chunki **ravoq** "toqning bir turi, bino devorlaridagi deraza va eshik o'rinlarining yuqori qismiga qo'yiladigan mehrobii yoysimon qurilma" hisoblanib, bunoning old tomonida peshtoq va ustunlar bilan ziynatlangan qismdir. O'zbek tilining izohli *lug'atida rais* terminiga "*diniy marosim va urf-odatlarining bajarilishini kuzatib boruvchi, shuningdek, o'lchov va tosh-tarozilarning to'g'riligini tekshiruvchi mansabdor shaxs*" (O'TIL, 2005), shaklida ta'rif berilgan. Adib jamiyatda o'z mas'uliyatiga nisbatan sovuqqon, zimmasi yuklangan vazifani to'liq bajarmaydigan, ikkiyuzlamachi, munofiq kimsalarni chuqur satira va yumorga olib, kinoya tarzida ularni shaxsiyati va lavozimiga mos kelmaydigan so'z va atamalar bilan "jazolaydi." Jumla tarkibidagi **afandi** leksemasi ham kishi ismiga tirkalib, hurmat bildiruvchi yoki vazifasidan yanglishib doim odamlar orasida kulgu va mazax qilinadigan insonlar ismi oldidan keladigan mazkur termin **rais** so'ziga qo'shilin o'ziga xos kinoyaviy, satirik yuklama hosil qilingan. Bu kabi so'zlarni transliteratsiya qilinib, izohlab ketilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Jumla davomida qo'llanilgan **farzi ayn** termini mukallaf har bir musulmon bajarishi shart bo'lgan farzni anglatuvchi diniy termin sanaladi. I. Tuxtasinov, O. Mo'minov, A. Hamidovlar mazkur termini inglizchada **rules of Islam** (Islom dini qoidalari) shaklida qayta

tiklagan bo'lsa, M. Riz tomonidan esa ushbu diniy termin **morality** (odob, ahloq) tarzida o'girilgan. K. Ermakova tomonidan amalaga oshirilgan tarjimada terminga mos keladigan muqobil so'z qo'llanmagan. Tadqiqotimizda tahlil etilayotgan

ushbu diniy terminni **farzi ayn** ko'rinishida transliteratsiya qilib, **individual religious obligation** (har bir shaxsning o'zi bajarishi kerak bo'lgan diniy vazifa) tarzida izohlab tarjima qilish usulidan foydalanishga jazm etdik.

Asliyat matnidagi realiyalar	I. Tuxtasinov, O. Mo'minov, A. Hamidovlar tarjimasi	Mark Riz tarjimasi	Kerol Ermakova tarjimasi	Biz taklif etayotgan tarjima varianti
peshtoq	tower	high arches	towers	portal
rais (afandi)	keepers of morals	rais afandi	moral guardians	rais afandi (moral guardian)
farzi ayn	rules of islam	morality	–	farzi ayn (individual (religious) obligation)
zoni(y)	adulterers	zoni (prostitutes)	fornicators	adulterers
zoniya		zoniya (adulteresses)	whores	adulteresses

Jadval 2. Tahlil etilayotgan terminlarning inglizcha tarjimalarining chog'ishtirma tahlili

Demak, butun jumlaning ingliz tilida quyidagicha qayta ifodalash mumkin:

Adulterers and adulteresses were hurled off the portal, and those who drank were whipped forty lashes. The Rais Effendi (moral guardian) would tell his minions to hold (belt) lashes, keep a watchful eye on those who did not pray, and beat those who did not perform their farzi ayn (individual obligations). (tarjima muallifdan)

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, terminologiya tilshunoslikning muntazam o'rganib kelinayotgan tadqiqot obyektlaridan biri sanalib, umumadabiy tilning mustaqil funksional qismidir. Terminologiy ilmi-fan va texnikaga oid so'z va so'z birikmalari majmui hisoblanib, umumadabiy til strukturasi asosida shakllanib boradi. Termin, atama, so'z hamda istiloh tushunchalari ilmiylik semasiga, muayyan mutaxassislikka tegishliligiga, tilda dinamik, faol va harakatchanligiga, kelib chiqishiga, expressivligiga va boshqa qator parametrlariga

ko'ra bir-birlaridan farqlanadi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida ham diniy, arxitekturaviy va boshqa sohalarga ta'luqli terminlardan ko'plab qo'llanilganiga guhov bo'lamiz. Terminlarni boshqa tillarga o'girishda mazkur terminlarni shaklan o'zgarishsiz ko'chirib o'tkazish (atonomiya, agronom, matematika kabi), transliteratsiya qilish, asliyat matnidagi terminga tarjima matnida mos keluvchi muqobili bilan almashtirish hamda so'zma-so'z tarjima usullari keng istifoda qilinadi. A. Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani inglizcha tarjimalari chog'ishtirma tahlili shuni ko'rsatadiki, I. Tuxtasinov, O. Mo'minov, A. Hamidovlar talqinida diniy sohaga oid terminlar tarjimasida so'zma-so'z tarjima usulidan foydalanilgani, tarjima matnida o'z ekvivalentlarini qisman topgani ko'riladi. M. Riz tomonidan amalga oshirilgan tarjima variantida termin va atamalar transliteratsiya qilinib, izohlash usuli yetakchilik qiladi, ammo ayrim terminlar, asosan, arab tilidan

o'zlashgan, diniy sohaga tegishli xos leksemalar inglizchada jins kategoriyasiga nisbatan noto'g'ri qayta ifoda etilgani ko'zga tashlanadi. Bu esa tarjimonning arabchadan o'zlashgan terminlar etimologiyasidan behabarligi yoki so'z ma'nosini noto'g'ri tahlil etilgani bilan izohlanadi (masalan, *zoniya va zoniya*lar ↔ *prostitutes and adulteresses*), deb hisoblaymiz. K. Ermakova tarjimasida esa ayrim islomiy tushunchalar va diniy atama va

terminlarni asliyat matnida nazarga tutilganidan farqli shaklda, boshqa so'z va terminlar bilan almashtirish, ayrim o'rinlarda esa, jins kategoriyasiga nisbatan neytral so'z bilan qo'llash holatlari kuzatiladi. Umuman olganda, romanning uchala tarjimalari orasida K. Ermakova tomonidan amalga oshirilgan tarjimada terminlarni tarjima matnida nisbatan o'z muqobillarini topgan, deb o'ylaymiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Amonov, M., Qosimova, O. (2023) Jins kategoriyasi va uning turli tizimli tillarda ifodalanishi. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. 3(3), March.
2. Dadaboyev, H. (2020) *O'zbek Terminologiyasi*. Toshkent. Yoshlar nashriyot uyi.
3. Dadaboyev, H. (2020) *O'zbek Terminologiyasi*. Toshkent. Yoshlar nashriyot uyi.
4. Ermakova, C. (2019) *Days Gone By by A. Kadiry*. Nouveau Monde editions.
5. Ermakova, C. (2019) *Days Gone By by A. Kadiry*. Nouveau Monde editions.
6. Madvaliyev, A. (2017) *O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari*. Toshkent. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
7. Ochilov, E. (2012) *Tarjima nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent.
8. *Oxford Dictionary of English* (2010) Oxford University Press.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. (2005) O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. (2005) O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. (2005) O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
12. Qodiriy, A. (2004) "O'tkan kunlar". Sharq. Toshkent.
13. Qodiriy, A. (2004) "O'tkan kunlar". Sharq. Toshkent.
14. Qodiriy, A. (2017) *The Days Gone By: Novel*. I, M. Tukhtasinov, O, M. Muminov, A, A. Khamidov. Toshkent. "Mashhur-press".
15. Qodiriy, A. (2017) *The Days Gone By: Novel*. I, M. Tukhtasinov, O, M. Muminov, A, A. Khamidov. Toshkent. Mashhur-press.
16. Rajabov, Q., Inoyatov, S. (2016) *Buxoro tarixi. "Tafakkur"*. Toshkent.
17. Reese, M. (2019) *Bygone Days by Abdullah Qodiriy*. USA. Middletown.
18. Reese, M. (2019) *Bygone Days by Abdullah Qodiriy*. USA. Middletown.
19. Suyunov, B. (2024) Термин ва бошқа тил бирликлари масаласи. *International scientific and practical conference "Science, Education and Innovation: Problems, Solutions and Prospects"*. May 17-18.
20. Whewell W. (1967) *The philosophy of the inductive sciences founded upon their history*. Vo. (I-II). London.
21. Даниленко, В.П. (1977) *Русская терминология. Опыт лингвистического описания*. Москва.